

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi*

Zarnigor Eshimova

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Nazar Eshonqulning “Tobut” hikoyasi tahlilga olinib, undagi qo‘rquv, vahima singari motivlar aniqlangan. Qo‘rquv – badiiy matnda nafaqat psixologik kechinma, balki jamiyatning yashirin jarayonlari, tarixiy xotira jarohatlari va shaxsiy tanlovlarning murakkab chorrahasini ochib beradigan asosiy tushunchalardan biri ekanligi isbotlangan.*

Kalit so‘zlar: *motiv, qo‘rquv, vahima, hikoya, badiiy matn, zamon va makon, ramz.*

Qo‘rquv motivi adabiyotda ko‘pincha “hissiy holat”, “vahima” sifatida talqin qilinsada, badiiy matn strukturasida u semantik-g‘oyaviy yuklamaga ega bo‘lgan fenomen sifatida qo‘llaniladi. Qo‘rquv – badiiy matnda nafaqat psixologik kechinma, balki jamiyatning yashirin jarayonlari, tarixiy xotira jarohatlari va shaxsiy tanlovlarning murakkab chorrahasini ochib beradigan asosiy tushunchalardan biridir. Zamonaviy o‘zbek nasrida qo‘rquv badiiy tafakkurning yot unsuri emas, aksincha, insonning ichki dunyosini, ma‘naviy va jismoniy jarohatlarini va tarixiy voqeliklarini ochuvchi markaziy poetik unsurlardan biridir. Qo‘rquv, ayniqsa, modernistik va postmodernistik asarlar doirasida “mavhumlik” bilan chambarchas bog‘lanib, shaxsning o‘zini anglash jarayonida vujudga keladigan insonning mavjudligi sifatida talqin qilinadi. Zero, qo‘rquv inson ruhiyatining ibtidoiy va umumiy holatlaridan biri bo‘lib, u asta-sekinlik bilan badiiy adabiyotga ko‘cha boshlagan. Dastlab, u ba‘zan aniq xavfga, tabiat hodisalari oldidagi ojizlikga javob reaksiyasi sifatida, ba‘zan esa noma‘lum kelajak, obro‘-e‘tibor, nazorat, jazolanish ehtimoli kabi omillar tufayli kuchayadigan xavotir sifatida ifodalanadi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda modernizm va postmodernizm yo‘nalishida samarali ijod qilayotgan Nazar Eshonqulning “Tobut” hikoyasi ham qo‘rquv motivining yorqin namunalaridan bo‘lib, unda sirli o‘limlar ko‘paygan, badbo‘y hid va zulmat hukmron, mantiqiy izohdan “qochib ketadigan” zamon va makon tasviri orqali jamoaviy qo‘rquvning qanday paydo bo‘lishi, qanday “ko‘nikma”ga aylanishi va oxir-oqibat ramziy haqiqatga (shaharning “tobut” shaklida qurilgani) borib taqalishi badiiy tizim sifatida mahorat bilan ko‘rsatib beriladi. Adib hikoya matnida qo‘rquv fenomenining badiiy-nazariy ko‘rsatgichlarini ajratish, ularning konseptual asosini ko‘rsatish va qo‘rquvning makon, detal hamda ramzlar orqali paydo bo‘lishini ilmiy izohlaydi.

Falsafiy jihatdan qaralganda, qo‘rquv ko‘pincha aniq obyektga qaratilgan javob reaksiyasi (xavf-xatar) bilan ijtimoiy tashvish o‘rtasidagi farq orqali anglashiladi. Birinchisi – tashqi xavfga javob bo‘lsa, ikkinchisi – mavjudlikning o‘zi, ma‘noning yemirilishi va kelajakning noaniqligi bilan bog‘liq mavhum bezovtalikdir. Hikoya poetikasida aynan shu

ikkinchi tur – noma'lumlikdan tug'ilgan tashvish – voqealarni harakatga keltiradigan kuchdir.

Adabiyotshunoslikda qo'rquv fenomeni quyidagi yo'nalishlar doirasida nazariy jihatdan talqin etiladi:

- 1) motiv va syujetning harakatlantiruvchisi sifatida;
- 2) xronotop (makon-vaqt)ni tashkil etuvchi kuchli ta'sir sifatida;
- 3) ramz va metafora orqali umumlashtirilgan ma'no qatlamlari sifatida;
- 4) poetik detal (hid, rang, sukunat, qorong'ulik)lar tizimi orqali o'quvchi idrokini boshqaruvchi sezgilar mexanizmi sifatida.

“Tobut” hikoyasidagi qo'rquv ana shu ko'p qatlamli qurilish orqali o'zini namoyon qiladi. Shaharda paydo bo'lgan noma'lum kasallik tufayli o'limlar sonining ortishi, shahar darvozasining “do'zax ostonasi”ga qiyoslanishi, badbo'y hid, zulmat va hadik-xavotir tasvirlarining takroriyligi kitobxonda ham cho'chish, qo'rquv hissini uy'otadi. Hikoya bejizga shunday nomlanmaydi, “tobut” ramzining yakuniy kalit sifatida ochilishining barchasi qo'rquvni shunchaki emas, aksincha yuqori bosqichga ko'taradi.

Hikoyada me'mor yigit markazdan yuborilgan tekshiruv guruhiga qo'shilib, chekka hududdagi olis shaharga boradi. Shaharda “noma'lum sabablarga ko'ra” o'limlar ko'paygan: odamlar ishlayotganida yoki uxlayotganida to'satdan jon taslim qiladi. Tekshiruv jarayoni tibbiy va ilmiy izohlar topa olmagan sari aholini yanada tashvishga soladi. Badbo'y hid, zulmat va sukunat qoplagan shaharni “ochiq lahad”ga o'xshatiladi. Hikoyada qo'rquvning bosh manbai – o'limning “sabab”ini aniqlay olinmagani, ya'ni **bilish imkoniyatining izdan chiqishidir**. Tekshiruv guruhi ilmiy mantiqqa asoslangan holda keladi, ammo shahar voqeligi ularning rejalarini barbod qiladi. Natijada, ijodkor qo'rquv **inson tanasi va hayotiga** bevosita zarar yetkazishi xavfdan ko'ra ko'proq tushuntirib bo'lmaydigan, noaniqlik masalasini o'rta tashlaydi hamda inson aqli “tushunish va tushuntira olmaslik” holatida qoladi va shu holat odamlar o'rtasida vahimani yanada kuchaytiradi. Sahro ustida qurilgan hashamatli shahar tashqi ko'rinishda “go'zal makon” sifatida taqdim etiladi, biroq ichkarida u “do'zax ostonasi”ga aylanadi. Darvozaning “ulkan mahluq qanoti”ga qiyoslanishi, ko'chalarning tugamas yo'lga o'xshashi, uylardagi zulmat va havo yetishmovchiligi – barchasi makonda qo'rquvni yuzaga chiqaruvchiga aylantiradi.

Kulminatsiyada bir paytlar mohir me'mor bo'lgan telbaning cho'ntagidan chiqqan shahar chizmasi orqali sir ochiladi. Shahar tuzilishi “tobut” shaklida loyihalangan bo'ladi: *“Butun shahar tobut shaklida qurilgandi. Biz shuncha kun tobutni kezib yurgan ekanmiz...”*¹ Qo'rquv hikoyada ko'rishdan ko'ra ko'proq sezgilar orqali faollashadi. Badbo'y hid shaharga kirib kelgan mehmonlarda “lahad” taassurotini uyg'otadi; zulmat va zahlik esa turar-joylarni hayot makoni emas, balki “nafasni bo'g'uvchi” bo'shliq sifatida ko'rsatiladi. Sukunat esa shaharni tiriklik, mavjudlikdan uzib qo'yadi: marhumlar aravada olib o'tilsa ham, odamlar buni odatiy holdek qabul qiladi. Go'yoki, bu holat doimo bo'lib kelgan va davom etadigandek. Hikoyadagi eng dahshatli holat – odamlarning qo'rquvdan qochishga yoki uni bartaraf etishga urinishi emas, aksincha, qo'rquvga ko'nikib qolishidir.

¹ Eshonqul N. Tobut. – Toshkent: 2018.

Ko‘chalarda o‘liklar olib o‘tilsa ham, yuzlarda “qilt etgan ifoda” ko‘rinmaydi, bu befarqlik ularda psixologik himoya mexanizmi sifatida ishlaydi. Qo‘rquv haddan oshganda inson hayratni yo‘qotadi va shaxsiy reaksiyalar o‘rnida jamoaviy hissizlik paydo bo‘ladi.

Nazar Eshonqul ijodida hid, rang va zulmat motivlarining ustuvorligi ayrim tadqiqotlarda ham ta’kidlangan: muallif badbo‘y hidni “batafsil va ta’sirli” tasvirlab, o‘quvchini voqelik ichiga singdirib yuboradi. Bu hol esa “Tobut”dagi qo‘rquv motivining muhim omillaridan biridir. Hikoya sarlavhasidagi “tobut” – inson jasadi solinadigan jihozgina emas, balki umumlashgan holat ramzidir. Shahar “tobut” shakliga keltirilgani hayotning tashqi tomondan “zamonaviylashuv”i, ichki tomondan esa bo‘g‘ilish va yemirilishiga ishora qiladi. Ramzning kuchi shundaki, u bir vaqtning o‘zida makonning tuzilishini, ruhiy holatning shakliy qarama-qarshiligi (hayot-o‘lim)ni, ijtimoiy tuzumning tanazzuli (musaffo havo-ufunat)ni va bilishning inqirozi (sabab topilmasligi)ni bitta nuqtada jamlaydi. Nazar Eshonqulning “Tobut” hikoyasida qo‘rquv fenomeni individual hissiyot darajasidan chiqib, butun makonni, ijtimoiy muhitni qamrab oladi. Noma’lum o‘limlar syujeti qo‘rquvni uyg‘otsa, ufunat, zulmat va sukunat kabilar qo‘rquvni tanaga singdiradi, shahar esa “tobut” shakli orqali qo‘rquvni metaforik tizimda umumlashtiradi. Shu ma’noda, “Tobut” qo‘rquvning sababini tashqaridan emas, insonning o‘zi barpo etgan makon va tizimdan izlashga chorlovchi modernistik ogohlantirishdir.

Adabiyotshunoslikda qo‘rquvni ikki darajada, mazmunan ya’ni mavzu, motiv, konflikt manbai va shakliy ya’ni poetik qurilishga asosan o‘rganish. Qo‘rquv ko‘pincha bevosita aytilmaydi, balki kompozitsiya, hikoya yo‘sini, ritm, pauza-sukut, detal va ramzlar tizimi orqali o‘quvchiga bevosita yetkaziladi. Shu bois qo‘rquv poetikasi matn ichidagi taranglik va sezgi-hissiyotlarni tahlil qilishni talab etadi. Qo‘rquv fenomeni o‘zbek nasrida oddiy hissiy kechinma tarzida emas, balki ijtimoiy tazyiq, travmatik tajriba va ekzistensial tanlovlar bilan uzviy bog‘langan murakkab kategoriya sifatida ko‘zga tashlanadi. Falsafiy yondashuv qo‘rquvni erkinlik, mas’uliyat hamda noma’lumlik muammolari bilan tutashtirsa, adabiyotshunoslik tahlili uni matn ichida shakllantiriladigan poetik-narrativ mexanizmlar majmui sifatida talqin etadi. Taklif etilayotgan tipologiya va indikatorlar tizimi zamonaviy romanlar tahlilida qo‘rquvning kelib chiqish manbalari, rivojlanish dinamikasi va badiiy funksiyalarini aniqlashga ko‘maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Eshonqul N. Tobut. – Toshkent: 2018. – 285 б.
2. Аристотель. Риторика. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2018. – 360 б.
3. Йўлдошев Қ. Сўз ёлқини. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – 504 б.